



## MENING PREZIDENTIM - MILLATIMIZ SARDORI

Alimova Ozodaxon İlhomjon qizi

Andijon Davlat Universiteti

Tarix fakulteti Tarix yo'naliishi

306 - guruhi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6323261>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:17-fevral 2022  
Ma'qullandi:22-fevral 2022  
Chop etildi:27-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Xronika, , g'oya,  
innovatsiya, fenomen,  
solnoma, virtual  
demokratiya

### ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevni olib borgan islohotlari, siyosiy faoliyatlariga bag'ishlangan.Ta'lism sohasini uzviy olib borishda masofaviy ta'limning o'rni va raqamli texnologiyalar orqali ta'lism sifatini oshirish afzalliliklari haqida ma'lumot berildi.

### KIRISH:

Qudratilla Rafiqovning " Mening Prezidentim kitobini o'qib juda ta'sirlandim. 2016- yil 4- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylanganlaridan beri ko'plab islohotlar o'tkazildi. 2020-yil " O'zbekiston matba ijodiy uyi tomonidan " O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning faoliyat xronikasi deb nomlangan to'plami nashrdan chiqarildi.

Ushbu to'plamda 2016-yil 1-sentabrdan 2020-yil 1- yanvargacha bo'lgandavrdagi faoliyat solnomasi aks ettirilgan. Ushbu davr Yangi O'zbekiston , O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi degan yangi nomlar bilan vatanimiz tarixidagi jahon hamjamiyati bilan munosabatlarimiz silsilasida juda muhim o'rinn egallab kelmoqda.

Vatan millat idroki bilan mavjuddir deb yozilgan ta'rifning o'zidayoq Vatan, Millat tushunchasi bir butun tushuncha ekanligi Millat vataning ustuni ekanligi haqida urg'u berilgan. Olis o'tmish sahifalarida Ona Vatanga fidoiylik hech kimdan kamemasligimizni ifoda etuvchi afsonaviy qahramonlarimiz mard, jasur vatanparvarlarimiz borkiqlabimizda fahr tuyg'usi jo'sh uradi.Zero Vatan so'zining ma'nosi ham Ona Yurt degan ma'noni bildirishi ham beziz emas.Chunki Vatan ham Ona kabi yagonadir.Ularni tanlash imkoniyati bizda yo'q, ular bizga Alloh tomonidanberilgan ne'matdur.Biz Mustaqil Vatanimizga munosib avlod bo'lismiz Vatan menga nima berdi deb emas balki men Vatanga Nima berdim deb yashashimiz lozimdir.Hayotimizda Yangilik qilish ,ko'pchilik odamlar o'rganib , ko'nikib qolgan eslicha qolib va andozalarni



o'zgartirish hech qachon oson kechmaydi. Ochiq va pinhona to'siqlarga duch kelishi turgan gap. Ayniqsa xalqni uyg'otish, unga yangi nafas berish, boshqaruvniyangilash masalasi davlat rahbaridan ulkan ma'suliyat , jasorat va donishmandlikni talab etadi. Zero Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda " Xalq davlat idoralari emas balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak,, degan g'oyaga qurilganligini yurtdoshlarimizuning har bir harakatida sezmoqda va unga ishonchi tobora mustahkamlashmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz hozirgi globallashuv jarayonida Taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri bu yangilanish ekanligi . Zero yangillanish by Innovatsiyadur deb bezizga aytmaganlar. Shu ma'noda bugungi siyosatning asosiy tamoyillari,ta'lim tizimining asosiy tamoyyillaridan biri innovatsiya etib belgilanganligini , uning har bir sohada talab etilayotganligi quvonchli hodisadur. Bugungi jahonning rivojlangan davlatlari erishgan yutuqlarining barchasi ayni innovatsiyani qo'llab quvvatlashning xosilasidur. Oddiygina misol qilib Xalq qabulxonalarini olaylik. Ushbu inovatsiya orqali mimglab millionlab yurtdoshalrimizning muammolari oddiygina telefon yoki xat bilan yechimini topa boshlaydi. Davlat xizmatlarini onlayn tarzda yo'lga qo'yilishi esa ovoragarchiliklarning oldini olib ,

beqiyos qulayliliklar yaratmoqda. 2016-yil aholi va hukumat o'rtasida to'g'ridan -to'g'ri muloqat qilish uchun xalq qabulxonalarini ovhilib rahbarning oldilariga kirishning imkoniyati paydo bo'ldi. 2017-yil "xalq bilan muloqot va inson manfaatlari,, yili deb belgilanganligi ham shu boradagi sohalar rivojlanishiga sabab bo'ldi . Xalqimiz farovonligi mamlakatimiz ravnaqi yo'lida qilayotgan ishlarimiz bilan ululg' ajdodlarimizning munosib avlodni bo'lishimiz kerak . Yurtboshimizning el dardiga malham bo'lishdek ezgu ishlarini samarasini ko'rар ekanmiz , Hazrati Navoiyning satralri yodimizga keladi

Odami ersang demagil odami,  
Onikim yo'k xalq g'amidin g'ami.

## XULOSA

Mamlakatimizda "Uchinchi Renessans,, davri boshlangan vaqtida amalga oshirilayotgan islohotlar birin-ketin o'z yechimini topayotgan muammolarning barchasi davlat rahbaridan kuchli iroda ,donishmandlik, sabr va matonat talab etadi. Ta'kidlab o'tishim joizki biz ulardan o'rnak olishimiz , nafaqat biz balki, har bir inson o'zida mana shunday fidoiylik , jasurlik , mehr-u muhabbat ,qolaversa har qanday vaziatda oqilona fikr yuritish kabi hislatlarni mujassam etmog'i lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Q.Rafiqov 2021 Mening Prezidentim Akademik Nashr
2. Vatanparvar gazetasi 2021